XALQ DEPUTATLARI MINGBULOQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 18 - fevral VI-44-22-6-81-K/22 Mingbuloq tumani hokimligi

Tumandagi ayrim ko‘chalarning nomlarini o‘zgartirish hamda yangi nomlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2014-yil 4-martdagi 48-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va Davlat kadastri davlat qo‘mitasining 2021-yil 27-sentyabrdagi 08-05271-son xati, 2021-yil 27-sentyabrdagi 01-14-685 sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davergeodezkadastr qo‘mitasi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni” ijrosini taminlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 15-oktyabrdagi 4-sonli xulosasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Mingbuloq tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. Tuman Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 5-avgustdagi o‘tkazilgan yig‘ilish bayonidagi ayrim ko‘chalarni nomlarini o‘gartirish, yangi ko‘chalarni nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari o‘zgargan, yangi nomlangan ko‘chalar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (Sh.Dadaxonov), viloyat kadastrlar palatasi Mingbuloq tuman bo‘limi (B.O'rinboyev), tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i (B.Mo‘minov) boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan hamkorlikda nomlari o‘zgargan, yangi nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga

o‘zgatirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsinlar.

4.Tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i (B.Mo‘minov)ga tuman obodonlashtirish boshqarmasi bilan birgalikda tuman hududida nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar hamda peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (M.Dadajonov) nomlari o‘zgargan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. Goeografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tumandagi MFY raislari bilan birgalikda :

Geografik obyektlarga nom berish yoki uni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi bo‘yicha viloyat ekspert xulosasiga ko‘ra, 1 oylik muddatda o‘rganishlar o‘tkazib, shu hududda yashovchi aholi fikrini inobatga olgan holda qo‘shimcha takliflar kiritish topshirilsin.

7. Xalq deputatlari Mingbuloq tuman Kengashining 2021-yil 27-noyabrdagi “Tumandagi ayrim ko‘chalarning nomlarini o‘zgartirish hamda yangi nomlash haqida”gi VI-38-26-6-81-K/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

8. Ushbu qaror e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Кенгаш раиси **Н.Худойбердиев**

Халқ депутатлари Мингбулоқ
туман Кенгашининг
2022 йил 18 февралдаги
VI-44-22-6-81-K/22-сон қарорига
1-илова

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo’yicha Mingbuloq tuman komissiyasining nomi o’zgartirilishi lozim bo’lgan ko’chalar bo’yicha taklifi

№	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o’rni	Geografik obyektning hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar 2 3 4 5
1	Ko’cha	Qozoqovul MFY	Obod	Obod
2	Ko’cha	Qozoqovul MFY	Yoshlik	Yoshlik
3	Ko’cha	Qolgandaryo MFY	O’qituvchilar	Haqiqat
4	Ko’cha	Serharakat MFY	O’zbekiston	O’zbekiston
5	Ko’cha	Alami MFY	Istiqlol	Salohiyat
6	Ko’cha	O’rta qishloq MFY	Bo’ston	Bo’ston
7	Ko’cha	O’rta qishloq MFY	Do’stlik	Do’stlik
8	Ko’cha	Mulkobod MFY	Paxtakor	Paxtakor
9	Ko’cha	Chordona MFY	Bog’bon	Bog’bon
10	Ko’cha	Chordona MFY	Mirishkor	Mirishkor
11	Ko’cha	Chordona MFY	Mehr	Murodbaxsh
12	Ko’cha	Ingichka MFY	Iftixor	Iftixor
13	Ko’cha	Ingichka MFY	Yangi hayot	Tarannum
14	Ko’cha	Ingichka MFY	Farovon	Bepoyon
15	Ko’cha	Paxtakor MFY	Soy bo’yi	Soy bo’yi
16	Ko’cha	Paxtakor MFY	Madaniyat	Sharaf
17	Ko’cha	Mustaqillik MFY	Ozodlik	Moviy osmon
18	Ko’cha	Mustaqillik MFY	Yangi hayot	Yangihayot
19	Ko’cha	Damko’l MFY	Namuna	Namuna
20	Ko’cha	Qorashahar MFY	Yoshlik	Yoshlik
21	Ko’cha	Yoshlik MFY	Nomsiz	Xalqlar do’stligi
22	Ko’cha	Birlashgan MFY	Momoxon	Nurxona